

## 2022- yil yanvar-iyul oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul oylariga Xorazm viloyatida jami 2442,3 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 102,4 %ni tashkil etdi.




### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.


**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu — o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **273,8** mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **102,7 %**ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **0,2 %** punktga ko‘paydi va **11,2 %**ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,1 %** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **56,8 %** ), Hazorasp tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **53,1 %** yoki 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **10,5 marta**) va Xiva tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,6 %**, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **3,7 marta** ) hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-iyul oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,0 %i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan 1,2 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 98,9 %ni tashkil etgan holda 1343,2 mlrd so'm miqdorida bajarildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi %da


**56,2**  
2021- yil  
yanvar-iyul

**55,0**  
2022- yil  
yanvar-iyul




*Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Urganch shahri (330,0mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 98,8 %), Urganch tumani (131,0 mlrd so'm yoki 99,4 %) va Xiva tumaniga (163,9 mlrd so'm yoki 94,3 %) to'g'ri keldi.*

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **127,6** mlrd soʻmlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2314,7** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,2 %** va **94,8 %**ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2022- yilning yanvar-iyul oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd so'm	ulushi % da	mlrd so'm	ulushi % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2442,3</b>	<b>127,6</b>	<b>5,2</b>	<b>2314,7</b>	<b>94,8</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>482,1</b>	<b>29,8</b>	<b>6,2</b>	<b>452,3</b>	<b>93,8</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>168,7</b>	<b>11,4</b>	<b>6,7</b>	<b>157,4</b>	<b>93,3</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	<b>135,1</b>	<b>0,0</b>		<b>135,1</b>	<b>100,0</b>
<b>Gurlan</b>	<b>128,8</b>	<b>11,7</b>	<b>8,7</b>	<b>117,1</b>	<b>90,9</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>171,1</b>	<b>11,5</b>	<b>8,9</b>	<b>159,6</b>	<b>93,3</b>
<b>Urganch</b>	<b>213,4</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>213,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>165,8</b>	<b>11,1</b>	<b>5,2</b>	<b>154,8</b>	<b>93,4</b>
<b>Tuproqqal'a</b>	<b>90,3</b>	<b>13,4</b>	<b>8,1</b>	<b>76,9</b>	<b>85,2</b>
<b>Xonqa</b>	<b>217,2</b>	<b>8,7</b>	<b>9,6</b>	<b>208,5</b>	<b>96,0</b>
<b>Xiva</b>	<b>251,2</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>251,2</b>	<b>100,0</b>
<b>Shovot</b>	<b>140,2</b>	<b>12,4</b>	<b>4,9</b>	<b>127,8</b>	<b>91,2</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>131,8</b>	<b>11,6</b>	<b>8,2</b>	<b>120,3</b>	<b>91,3</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>146,6</b>	<b>6,1</b>	<b>4,6</b>	<b>140,5</b>	<b>95,8</b>



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-iyul oylari**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 77,2 % yoki **1885,4** mlrd soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**77,2 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **273,6** mlrd soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 11,2 %ni tashkil etdi.

**11,2 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **889,4** mlrd soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 36,4 %ni tashkil etdi.


**36,4**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **758,5** mlrd soʻmnini yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 31,1 % ni tashkil etdi.

**31,1 %**



## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-iyul oylarida**

*mild s'om*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2442,3</b>	<b>1708,4</b>	<b>615,2</b>	<b>118,7</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>482,1</b>	<b>263,8</b>	<b>186,1</b>	<b>32,2</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>168,7</b>	<b>93,6</b>	<b>73,8</b>	<b>1,3</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Bog'ot</b>	<b>135,1</b>	<b>96,6</b>	<b>33,1</b>	<b>5,4</b>
<b>Gurlan</b>	<b>128,8</b>	<b>92,5</b>	<b>15,7</b>	<b>20,8</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>171,1</b>	<b>129,6</b>	<b>39,2</b>	<b>2,3</b>
<b>Urganch</b>	<b>213,4</b>	<b>139,5</b>	<b>49,9</b>	<b>23,9</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>165,8</b>	<b>137,7</b>	<b>23,5</b>	<b>4,6</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>90,3</b>	<b>61,4</b>	<b>26,5</b>	<b>2,4</b>
<b>Xonqa</b>	<b>217,2</b>	<b>161,3</b>	<b>48,0</b>	<b>7,9</b>
<b>Xiva</b>	<b>251,2</b>	<b>190,7</b>	<b>53,4</b>	<b>7,1</b>
<b>Shovot</b>	<b>140,2</b>	<b>120,5</b>	<b>13,4</b>	<b>6,3</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>131,8</b>	<b>114,3</b>	<b>16,1</b>	<b>1,4</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>146,6</b>	<b>106,9</b>	<b>36,5</b>	<b>3,2</b>

2022- yilning yanvar-iyul oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

*mldr so‘m*

**Urganch sh.**

**482,1**



**Urganch**

**213,4**



**Xiva**

**251,2**




**Xonqa**

**217,2**



***Ma’lumot uchun:*** qurilish ishlaringning eng yuqori hajm ko’rsatkichi Urganch shahri (482,1 mldr so‘m), Urganch (213,4 mldr so‘m), Xiva (251,2 mldr so‘m), hamda Xonqa tumanlariga (217,2 mldr so‘m) to‘g‘ri keladi.





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22

2022-yil  
yanvar-iyul

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

10